



JIZZAX VILOYATI MIRZACHO‘L TUMANIDA TASHABBUSLI BUDJEDLASHTIRISHNING AMALGA OSHIRISH MEXANIZIMI

*Abdiqodirov Shahzod,
Tursunaliyev Behruzbek,
Sharobiddinov Sardorbek*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Moliya” fakulteti MMT-88 guruh talabalari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jizzax viloyati Mirzacho‘l tumanida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan Tashabbusli budjet natijalari, ajratilgan mablag‘lar miqdori bildirilgan takliflar hamda ovoz berish natijasida g‘olib bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: Tashabbusli budjet, taklif bildirish, mablag‘ ajratish, moderatsiya, g‘olib loyihani aniqlash, ovoz berish, pudratchini tanlash, shartnoma tuish.

Jizzax viloyati Mirzacho‘l tumanida 2021-2022-2023-yillarda “Tashabbusli budjetlashtirish” loyhasida doirasida amalga oshirilgan ishlar tahlili

Oxirgi yillarda mamlakatimizda budjet jarayoni ochiqligi, undan samarali foydalanish va fuqarolarimizning budjet jarayonida ishtirokini oshirish yo‘lida ko‘plab samarali loyihalar va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday ishlar natijasida mamlakatimizda yo‘lga qo‘yilgan “Tashabbusli budjetlashtirish” loyihasi doirasida Jizzah viloyati Mirzacho‘l tumanida ohirgi yillarda ushbu loyiha doirasida amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lami tahlilini ko‘ramiz.

Ushbu jadval orqali Jizzax viloyati Mirzacho‘l tumaning 2021-2023-yillar davomida Tashabbusli budjetlashtirish loyihasiga mahalliy budjetdan ajratilgan summalar va ularning sarflanishini, ajratilgan summalarning o‘shish tendensiyasi tahlilini ko‘rib chiqamiz.



1-jadval

**Jizzax viloyati Mirzacho‘l tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun
yo‘naltirilgan mablag‘lar miqdori¹ (ming so‘mda)**

T/r	Ko‘rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	0	298 000.0	410 000.0
2.	Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘lar	1 633 000	4 657 000,0	6 468 000.0
3.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan	1 365 000	4 610 000,0	5 850 000.0
3.1.	Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘	165 200	3 225 743,0	3 691 771.0
3.2.	Hisobvaraqlardagi qoldiq	1 199 800	1 384 257,0	1 988 855.0
4.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘	289 000	1 681 556,0	1 162 776.4

Yuqoridagi 1-jadvalga ko‘ra, Mirzacho‘l tumanida so‘ngi uch yil davomida ko‘rsatkichlar o‘shish holatini ko‘rsatmoqda. Misol uchun yil boshiga qoldiq 2023-yilda 2022-yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 137 % ga ya‘ni 112 ,0 mln.so‘mga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” hisobiga kelib tushgan mablag‘lar esa 2021-yilda qariyb 1 633 ,0 mln.so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2022-yilga kelib 4 657,0 mln.so‘mni tashkil qilib o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 285 % ga ya‘ni 3 024,0 mln.so‘mga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu summaning ko‘tarilganligiga sabab yangi tadbirkorlik subyektlarining tashkil topganligi shuningdek, soliq to‘lovchilar ko‘lamining oshganligi sababli mahalliy budjetda daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo‘yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi ko‘paygan. Shuningdek, 2021-yilda mahalliy budjetdning orttirib bajarilgan qismidan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga 10 % (2021-yil 1-iyulga) o‘tkazilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-apreldagi PQ-5072-son qaroriga binoan ushbu foiz ko‘rsatkichi 10 % dan 30 % miqdoriga oshirildi, hamda 2022-yil 1-yanvardan boshlab yuqoridagi qarorning 1-band ikkinchi xatboshiga muvofiq mahalliy budjetning tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 % i miqdoridagi pul mablag‘lari ham “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” hisobiga yo‘naltirilgan.

2021-yil va 2022-yillarda bajarilgan ishlar uchun hisobraqamlardan moliyalashtirilgan mablag‘larga qaraydigan bo‘lsak, 2021-yilda 1 ta loyiha qo‘yilgan

¹ <https://openbudget.uz/boards/reports>



hamda unga 165,2 mln.so‘m mablag‘ ajratilgan. Buning sababi ushbu loyiha O‘zbekistonda endi tashkil qilinganligi odamlarning ushbu loyiha haqida unchalik xabari bo‘lmaganligi va loyihalar soni kam bo‘lganligi sababli jamg‘armaga kelib tushgan pul mablag‘larining kassa xarajatlari kam bo‘lgan.

2022-yil hamda 2023-yillarni solishtiradigan bo‘lsak, Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga kelib tushgan mablag‘lar 2023-yil 2022-yilga nisbat o‘shish sur‘ati 138,8 % ko‘rsatkich bilan 1 811 mln.so‘mga ko‘paygan. Ushbu mablag‘lar o‘tgan yildan yangi yil boshiga qolgan qoldiq, mahalliy budjetning tasdiqlangan xarajatlarining 5 %i miqdorida hamda, daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo‘yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi natijasida kelib tushgan mablag‘lar hisobidan shakillanadi.

Endi esa, Mirzacho‘l tumanining 2021-2023-yillarda mahalliy budjetdan Tashabbusli budjetlashtirish loyihasiga ajratilgan summalarni sohalar kesimida g‘olib bo‘lgan loyihalar uchun qanchadan ajratilganligi, shuningdek qaysi soha bo‘yicha loyihalar kelib tushish darajalari tahlilini ko‘rib chiqamiz.

2-jadval

Jizzax viloyati Mirzacho‘l tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar²

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag‘ (ming so‘mda)		
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Jami		1	14	9	165 200	4 610 000	5 850 000
1.	Hududiy ichki yo‘llar	-	1	-		500 000	
2.	Umumta‘lim maktablarini ta‘mirlash va jihozlash	1	7	5	165 200	1 350 000	3 050 000
3.	Maktabgacha ta‘lim muassasalarini ta‘mirlash va jihozlash	-	1	-		200 000	
4.	Sog‘liqni saqlash muassasalarini ta‘mirlash va jihozlash	-	-	-			
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta‘mirlash va jihozlash	-	2	3		500 000	1 550 000

² <https://openbudget.uz/boards/reports>



6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	-	-	-			
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari	-	1	-		500 000	
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)	-	1	-		920 000	
9.	Boshqa tadbirlar	-	1	1		640 000	1 250 000

2-jadvalda berilgan tashabbusli budjetlashtirish loyihasi doirasida amalga oshirilgan tadbirlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, Mirzacho'l tumanida yuqorida takidlaganimizdek 2021-yilda umumta'lim maktabni ta'mirlash va jihozlash uchun bitta loyiha amalga oshirilgan va unga 165,2 mln.so'm miqdoridagi mablag'lar sarflangan. 2022-yilda o'tgan yilga nisbatan 13 taga ko'payganligi, shuningdek, g'olib deb topilgan loyihalarning katta qismi ijtimoiy sohaga to'g'ri kelganligini ko'rishimiz mumkin. 2022-yilda Mirzacho'l tumanida umumiy 14 ta loyiha g'olib deb topilib moliyalashtirish ishlari amalga oshirilgan bo'lsa, shundan 10 tasi 71,4 % qismi ijtimoiy soha ya'ni umumta'lim maktablarini va maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va qayta jihozlash bo'yicha, 4 tasi 28,6 % qismi kommunal va qurilish sohasiga to'g'ri kelishini kuzatishimiz mumkin.

2022-yilda loyihalar soni 13 taga oshganligi sababli 2021-yilga nisbatan 4 444,8 mln.so'm ko'p mablag'lar sarflangan.

Ammo 2023-yilga kelib, g'olib bo'lgan loyihalar soni 2022-yilga nisbatan 5 taga kamaygan. Biroq loyihalar soni kamayganligiga qaramay 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 1 240,0 mln.so'm mablag' ortiqcha sarflangan. Bir tarafdin 2023-yilga kelib fuqarolar tomonidan ushbu loyiha mazmun va mohiyati ishlash prinsiplari ancha o'rganilgan mahalla fuqarolari tomonidan har bir fuqaro o'zi hohlagan loyihalarni emas aksincha birgalikda mahalla uchun birinchi o'rinda turuvchi loyihalarni jiplashgan holda olib chiqqan. Shuning uchun, 2023-yilga kelib g'olib bo'lgan loyihalar soni kamayish holati kuzatilgan bo'lishi mumkin.

Jamoatchilik fikri asosida shakillantirilgan loyihalar uchun mablag'lar tuman budjetiga qonunchilikda belgilangan tartib shakillantiriladi. Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'lari mahalliy budjetning tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foizi, mahalliy budjetning yil boshiga erkin qoldiq mablag'lari va mahalliy budjetning orttirib bajarilgan daromadlarining 30 foizi miqdoridagi mablag'lari asosida shakillanadi. Quyidagi keltirilgan jadval orqali esa ushbu mablag'larning shakillanishini yillar kesimida tahlilini ko'rishimiz mumkin.



3-jadval

Jizzax viloyati Mirzacho‘l tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg‘armasi mablag‘larining shakllanish manbalari³ (ming so‘m)

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari		2021-yil	2022-yil	2023-yil
Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar		-	3 757 565	6 000 000
Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari		-	392 000	-
Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar		1 633 000	813 000	468 000
Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari	-	392 000	-
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	-	421 000	-
	Iqtisod qilingan mablag'lar	-	-	-
Qo'shimcha ajratilgan	PQ-5250ga asosan	-	-	-
	PQ-409ga asosan	-	-	-
	PQ-117ga asosan	-	-	-
Jami ajratiladigan mablag'lar		1 633 000	4 570 565	6 468 000

3-jadval bo'yicha Mirzacho‘l tumanida fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi mablag‘larini shakllanish manbalarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 2022-yil uchun bir moliya yili uchun tuman budjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 % qismi ya'ni umumiy hisobda 3 757 565,0 ming so‘m miqdoridagi pul mablag‘lari jamg‘arma hisobiga yo‘naltirilgan bo‘lsa, bundan ko‘rinib turibiki Mirzacho‘l tuman budjetining bir moliya yili uchun tasdiqlangan umumiy xarajatlari 75 151 300,0 ming so‘mni tashkil qilgan. Shuningdek, Mirzacho‘l tumanining 2022-yil yil boshiga erkin qoldig‘i 392 000,0 ming so‘mni tashkil qilgan.

Mirzacho‘l tumani fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi hisobiga daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilishi hisobiga 421 000,0 ming so‘m mablag‘ ajratilib umumiy hisobda 2022-yilda jamg‘arma uchun 4 570,6 mln.so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan.

2022 va 2023-yillarni taqqoslaydigan bo‘lsak, 2023-yilda tuman budjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5% qismi ya'ni 6 000,0 mln.so‘m miqdoridagi

³ <https://openbudget.uz/boards/reports>



mablag'lar jamg'armaga yo'naltirilib, 2022-yilga nisbatan 2 242,4 mln.so'm ko'p yo'naltirilgan bundan ko'rinib turibiki Mirzacho'l tumanining bir moliya yili uchun xarajatlar miqdori oshganligini va umumiy tasdiqlangan xarajatlar summasi 120 000,0 mln.so'mligini bildiradi. Shuningdek, Mirzacho'l tumani fuqarolar tashabbusi jamg'armasi hisobiga daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilishi hisobiga 468 000,0 ming so'm mablag' ajratilib, 2022-yilga nisbatan 1,5 %ga o'sganligini ya'ni 7,0 mln.so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Mirzacho'l tumanida 2023-yilda fuqarolar tashabbusi jamg'armasi hisobiga 6 468,0 mln.so'm mablag'lar yo'naltirilib, 2022-yilga nisbatan 1 897,4 mln.so'm ko'p pul mablag'lari yo'naltirilgan.

Quyida keltirilgan jadvalda tuman aholisi tomonidan hudud miqyosida eng dolzarb deb topilgan loyihalar, ularning qisqacha mazmuni va loyihaning g'olib bo'lishi uchun jamoatchilik tomonidan to'plangan ovoz hamda ushbu g'olib loyihalarni moliyalashtirish uchun qancha mablag' sarflanganligini yillar kesimida hamda loyihalar kesimida tahlil qilib chiqishimiz.

4-jadval

Jizzax viloyati Mirzacho'l tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi⁴

T/r	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to'plagan ovozlar soni	Shu jumladan			Moliyalash tirish uchun ajratilgan mablag' miqdori (ming so'm)
			onlayn ovozlar	oflayn ovozlar	SMS orqali ovozlar	
2021-yilda						
1.	Umumta'lim maktabini ta'mirlash va jihozlash					165 200
2022-yilda						
1.	Yangi dala QFYdagi 15-maktab eshik va romlarni almashtirish	658	4		654	200 000
2.	AKM moddiy texnik bazasini mustahkamlash	357	4		353	250 000

⁴ <https://openbudget.uz/boards/reports>



3.	Bog'bon QFYdagi 14-maktab sport zalini ta'mirlash ishlari	356	1		355	100 000
4.	G'alaba MFYda istiroxt bog'ini obodonlashtirish ko'klamzorlashtirish	343	5		338	920 000
5.	Yangi dala QFYdagi 15-maktab tom qismini joriy ta'mirlash	297	0		297	300 000
6.	Ipak yo'li QFYdagi qishloq o'yingohini kapital ta'mirlash	281	124		157	640 000
7.	Ipak yo'li QFYdagi 4-maktabga yangi hojatxona qurish ishlari	268	14		254	150 000
8.	Mustaqillik MFYdagi 1-maktabiga o'quv jihozlari olish	266	3		263	200 000
9.	1-o'rta ta'lim maktabidagi ikkinchi sport zalini kapital ta'mirlash	396			396	250 000
10.	3-son DMTT oshxonasini zamonaviy tipda ta'mirlash	284			284	200 000
11.	G'alaba MFYda joylashgan Do'stlik ko'chasiga asfalt qoplama yotkazish	280			280	500 000
12.	10-o'rta ta'lim maktabiga mini futbol maydoni qurish	239			239	150 000
13.	Toshkent QFYda Birlik ko'chasida joylashgan 3 ta ko'p qavatli uylar tom qismini almashtirish	216			216	250 000
14.	G'alaba MFYda joylashgan istrixot bog'i hududiga zamonaviy chiroqlar o'rnatish	179			179	500 000
2023-yilda						
1.	1-maktabning ustaxonasini ta'mirlash va jixozlash	1685			1685	500 000
2.	12-maktabning issiqlik tizimini ta'mirlash	1613			1613	500 000
3.	18-maktabning sinf xonalarining parta stul jixozlari va o'qituvchilar xonasini jixozlash	1553			1553	500 000
4.	Kasb-hunar maktabining ustaxonasi binosini joriy ta'mirlash hamda moddiy texnik bazasini rivojlantirish	1524			1524	750 000



5.	11-maktabning issqilik tizimini ta'mirlash	1495			1495	550 000
6.	Agrosanoat texnikumi sport zal binosini ta'mirlash va sport anjomlarini xarid qilish	1374			1374	200 000
7.	Mirzacho'l tumani sport maktabiga qarashli TIP-1 bolalar sport majmuasini ta'mirlash va kurash saroyi qurish	3123			3123	1 250 000
8.	11-maktabni alohida Boshlang'ich ta'lim binosini joriy ta'mirlash. O'quvchilarga qo'shimcha mashg'ulotlar olib boorish uchun sharoit yaratish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.	3113			3113	1 000 000
9.	Mirzacho'l agrosanoat texnikumini moddiy texnik bazasini mustahkamlash	3075			3075	600 000

4-jadval orqali Mirzacho'l tumanida g'olib deb topilgan loyihalarni to'plagan ovozlar soni bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2022-yilda eng yuqori ovoz 658 tani tashkil qilib ijtimoiy soha ya'ni maktabni ta'mirlash ishlari yuzasidan qo'yilgan loyiha g'olib deb topilgan bo'lsa, eng kam ovoz to'plab ya'ni 179 ta ovoz bilan G'alaba MFY da joylashgan istiroxat bog'ini ta'mirlash bo'yicha loyiha g'olib deb topilgan.

2023-yilda esa 3123 ta ovoz bilan eng ko'p ovoz to'plagan loyiha sport maktabi sport majmuasini ta'mirlash bo'lsa, eng kam ovoz to'plab ya'ni 1374 ta ovoz bilan texnikum zalini ta'mirlash loyiasi g'olib bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

2022-2023-yillarni eng ko'p va eng kam ovoz to'plagan loyihalarni to'plagan ovozini ko'radigan bo'lsak ovozlar soni ko'paygan ya'ni loyihalarga ovoz berishda ishtirok etuvchi faol fuqarolar qatlami ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Tashabbusli budjetlashtirish fuqarolarning takliflarini hisobga olgan holda turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun mahalliy budjet mablag'larining bir qismini taqsimlash va bu mablag'larni srf flash yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilishga xizmat qilmoqda.



Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo 'llanma." Toshkent:“Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo 'llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Ҳайдаров НХ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo 'llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. УУ О'роқов, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиклигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Vaktria press. 2016.
16. Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.



21. У Ўроқов.Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
22. G‘aybullayev O, O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. Ikramjon Masharipov. Yangi O‘zbekistonda zamonaviy fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish jarayonlari. Общество и инновации.202